

“Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati barcha ovoz beruvchi oddiy aksiyalari Yagona aksiyadorining 1 - sonli

QARORI

2025-yil 22 - yanvar

Toshkent shahri

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58, 59 va 74-moddalariga va “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatining chiqarilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi 84 618 347 341 dona oddiy ovoz beruvchi aksiyalarning yagona aksiyadori bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan quyidagi masala yuzasidan qabul qilindi:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi 464-son qarori ijrosini ta‘minlash masalasini ko‘rib chiqish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi “Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklari faoliyatning operatsion samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 464-son qarorining 4-bandiga ko‘ra 2024-yil 1-avgustdan boshlab davlat ishtirokidagi korxonalar Kuzatuv kengashlariga davlat ulushi bo‘yicha tayinlangan nomzodlar (mustaqil a‘zolar bundan mustasno) kuzatuv kengashlaridagi faoliyati uchun haq olmasliklari belgilangan.

Shuningdek, mazkur qaror bilan 2024-yil 1-avgustdan boshlab davlat ishtirokidagi korxonalar Boshqaruv raislari va rais o‘rinbosarlariga to‘lanadigan oylik ish haqqining eng yuqori miqdorlari tasdiqlangan.

Shu munosabat bilan “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning “Kuzatuv kengashi a‘zolariga haq to‘lash to‘g‘risida”gi Nizomining yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqilib, dastlab Jamiyat Kuzatuv kengashining 2024-yil 20-sentabrdagi 5-sonli majlis muhokamasiga kiritilgan. Mazkur majlisda ushbu Nizom maqullangan hamda Jamiyatning barcha ovoz beruvchi oddiy aksiyalari Yagona aksiyadoriga tasdiqlash uchun kiritish yuzasidan qaror qabul qilingan.

Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi 464-son qarori ijrosini to‘laqonli ta‘minlash maqsadida Jamiyat “Ijro organi a‘zolarining mehnatiga haq to‘lash to‘g‘risida”gi Nizomni ham tasdiqlash zarur hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58, 59 va 74-moddalariga asosan, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning barcha ovoz beruvchi oddiy aksiyalari Yagona aksiyadori, **qaror qiladi:**

1. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning “Kuzatuv kengashi a‘zolariga haq to‘lash to‘g‘risida”gi Nizomi 1-ilovaga hamda “Ijro organi a‘zolarining mehnatiga haq to‘lash to‘g‘risida”gi Nizomi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Jamiyat Boshqaruv raisi (Askarov) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi 464-son qarori va yangi tasdiqlangan nizomlarga asosan tegishli ichki normativ hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritishni ta‘minlasin.

2. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish jamiyat Boshqaruv raisining zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirining
o‘rinbosari**

 **X. Mustafayev**